

## МАКТАБ МАТЕМАТИКА DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Sh.Mahmanazarova*

*Navoiy shahar 5-sonli maktab matematika o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab matematika darslarida didaktik o'yinlarni o'zni va ahamiyati hususida so'z boradi va misollar yordamida tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** matematika, didaktik o'yinlar, zamonaviy ta'lim, ko'rgazmalilik, o'yin qoidasi, boshlang'ich ta'lim.

Ta'lim - o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, uni tarbiyalash va tarbiyalash ham amalga oshiriladi. Darsda o'qituvchi o'z bilim, ko'nikma va malakalarini mashqlar orqali o'quvchilarga beradi, o'quvchilar esa ularning rivojlanishi natijasida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. O'quv jarayonida o'quvchilar turli xil ta'lim shakllaridan foydalanadilar, ya'ni ular olingan ma'umotlarni olish, qayta ishlash va qo'llashda o'ziga xos farqlarga tayanadi. Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi maktab o'rindiqdarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetgazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston buyuk kelajagining egalaridir. Barkamol avlod haqida so'z borganda, davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish. Oliy va o'rta maxsus ta'lim, umumta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini bugungi kun talabarlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur. Shuningdek, o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil inson etib tarbiyalashda jon bozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlalariga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lish darkor. Shu sababli zamon talablariga to'liq javob bera oladigan pedagogik texnologiyalarini boshlang'ich sinf matematika darslarida ham joriy qilish ishlari hozirgi davr talabidir.[1]

Maktab matematika darslarida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida o'rin tutadi. Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi, bundan tashqari matematika

darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda va bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning o'zida ishlashini ta'minlaydi. Miyadagi bunday faollik berilgan axbarotni bir vaqtning o'zida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni ta'minlaydi. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik hissi, dunyoqarashlari shakillanib boradi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatlariga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtiradi, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib o'quvchilarni toliqtirmaslik imkonini beradi. Bolalar uchun o'yin ularning ijtimoiy ijodkorlik sohasidir. O'yin juda informatsiondir, u bolalarni atrofdagi dunyo bilan tanishtiradi va bolaning o'zi haqida va o'qituvchiga o'yinchi haqida ko'p narsalarni aytib beradi. O'yin - bu bolaning barcha hayotiy pozitsiyalarini tartibga soluvchisi hisoblanadi. U bolalarda bolalikni saqlaydi va rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga egadir. Didaktik o'yinlarni xilma – xil tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakildan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi : 1. O'yinning vazifasi; 2. O'yinning harakati; 3. O'yinning qoidasi; 4. O'yinning yakuni. Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'yinni qoidasi, mazmunini, yakunini nimadan iborat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib anglab shu asosida harakat qiladi. O'yin faoliyati g'olib yoki mag'lub tushunchalardan iborat bo'lib dars jarayonida qo'llanilganda bola g'olib bolish uchun kurashadi va ana shu kurash natijasida berilgan axbarotni diqqat bilan tinglab bilimlarni osongina egallab oladi. Bir vaqtning o'zida bu bilimlarni hayotda qo'llab ko'radi. Masalan:

“**33 ta 33**” didaktik o'yinida bola ko'paytirish jadvalini yaxshi yodlagan bo'lishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak bo'ladi. O'yin sharti sinf o'quvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga bo'linadigan sonlar aytilmay o'rniga qarsak chalinadi. (1,2, qarsak, 4,5,qarsakvah.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil qilingan darslarda integratsiya ya'ni fanlar aro bog'lanish yaqol ko'zga tashlanadi.

“**Sayohat dars**” didaktik o'yinini misol qilib oladigan bo'lsak, matematika darsini bir vaqtning o'zida ona tili va tabiat fanlari bilan bog'lash mumkin. O'yin topshirig'i: O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. O'yinshart, magnet doskaga aeroport maketi chizilgan surat osib qo'yilgan.

Suratda qadimiy shaharlarimiz nomlari yozib qo'yilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari soniga mos chiptalar tayyorlangan bo'lib chiptalarning orqa tomonida misollar berilgan bo'ladi, old tomonida yo'nalishlar yozilgan bo'ladi. Masalan, Buxoro-Toshkent, Buxoro-Xiva singari. O'quvchilar misollarni to'g'ri yechsa, berilgan yo'nalish bo'yicha sayohatga chiqadi. Ya'ni o'rinidan turib poyezdcha ko'rinishida saflanib sinf bo'ylab yuradi. Videoprojektor ekranida qadimiy shaharlarning video tasviri ko'rsatiladi. Samalyot aeroportga qo'ngach, o'quvchilardan chiptalarga diqqat bilan qarash talab etiladi. O'quvchilar chiptadagi xatolikni topishlari kerak ya'ni bitta chiptada joy nomi kichik harf bilan yozilgan bo'lib ushbu xatoni topgan o'quvchidan atoqli otlar qoidasi topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

**"Ishoralar" o'yini.** O'yinning maqsadi: bir amali masalani og'zaki yechish ko'nikmalarini rivojlantirish. "-","+" belgilari. O'yinning borishi: O'quvchi masalani o'qiydi o'quvchilar masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa o'sha "ishora" ni ko'rsatadilar. Masalan: Sanjarning 5 ta qora va 3 ta qizil qalami bor. Hammasi bo'lib nechta qalami borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz? O'quvchilar "+" ni ko'rsatadilar. Masala og'zaki yechiladi. 2. Nigorada 9 ta daftar bor edi. 2 tasini ukasiga berdi. Nigorada nechta daftar qoldi? Mustahkamlash o'quvchilar "-","+" qo'shish ayrish belgilari qochon qo'shilishini so'rab, ularning bilimini mustahkamlaydi. Matematika darslarida boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlar kamroq qo'llaniladi. Shunga qaramay, bu asrdagi o'yin texnologiyalari bilimlarni olish va mustahkamlashning eng samarali usuli hisoblanadi. O'yinlar kuzatuvni, o'xshashlik va farqlarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlashni, e'tiborni va tasavvurni yaxshilaydi. Bundan tashqari, o'yin faoliyatini tashkil etish, nisbatan murakkab bir mavzu sifatida matematikaga qiziqishni rivojlantirishning juda samarali usuli hisoblanadi.

**"Bilmasvoyning xatolari" o'yini** – o'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini o'quvchilarning mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish. O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

**"Kim epchil" o'yini.** O'yin maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish. O'yin jihozi: 2 ta savatcha ifodalar yozilgan olmalar 12-6; 2+8; 7+5; 4+8; 10-3 va hakoza. Stol ustida "olmalar" yozib qo'yiladi. Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi "olmalar"dagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. to'g'ri Ifodaning qiymatini topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p "olma" tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi

Xulosa qilib aytganimizda maktab matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanib darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirish, fanlar aro bog'lanish va o'quvchilarda egallangan bilimni hayotda qo'llay olishini ta'minlaydi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur, aniq belgilash ta'lim sifati mazmunini samarali bo'lishiga zamin hosil qiladi. O'yin esa bolaning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyat bo'lib, uning bu faoliyati ob'yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. N.Xalbayev, "Ta'lim fidoyilari" electron jurnal 2022 yil may "Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish" 250-252 bet.
2. N.U.Bikboyeva, E.Ya.Yangiboyeva va boshqalar, "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi", T.: "O'qituvchi", 2005;
3. Абдуллаева.Қ, Сафарова.Р, Бикбоева.Н. —Бошланғич таълим концепцияси Бошланғич таълим, 6-сон. —Т.: 1998. — Б. 2-9.